

barcha odamlar va hayvonlarni cho'kdi. Faqat ikkita aka-uka omon qoldi va Xudo butun qabila yo'q bo'lib ketishining oldini olish uchun ularning turmush qurishlarini xohladi⁸⁶. Shunday qilib, ular turmush qurishdi va kuchli Yudvad qabilasining ajdodlari bo'lishdi.

2. Qadim zamonlarda yer yuzida qadimgi xudolar yashagan. [To'fon](#) kelib, bu xudolarning ko'pini g'arq qildi, ba'zilar esa osmonga o'ralib, yulduzlarga aylandi. Suv tortilgach, buyuk xudo Pondergilning o'g'li Bevorand va uning qizi Qoraroq dunyoga qaytib, insoniyatning ajdodlari bo'lishdi.

Afrika mintaqasi afsonasi. [Yaunde, Kamerun, Afrikadagi](#) Kaka xalqi afsonasida bir kuni tushdan keyin bir qishloqda uyda faqat bir qiz va uning akasi bor edi. Qiz uyning tashqarisida edi, bir [qo'chqor](#) keligach qiz uni to'ydiradi, va men senga muhim bir narsani aytmoqchiman. Bugun katta sel bo'ladi. Sen menga juda mehribonsan, tirik qolishingni hohlayman deydi. Uka va opa qo'lga siqgunicha narsalarini yig'ishtirib, qishloqdan qochib ketishdi. Ular ko'p yillar davomida hech kimni topmay yashashdi, keyinroq qo'ylar yana paydo bo'lib, aka-uka bo'lsalar ham, uylanishlari mumkinligini aytishdi tomga boshsiz ketmon tutqichi bog'lashadi. Shuning uchun ham bugungi kunda yaqin qarindoshlar turmushga chiqsa, er-xotin tomga tubi singan qozon va ketmon dastasini osib qo'yishadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Геродот. История в девяти книгах. Л.: Наука, 1972.
2. [Аполлодор. Мифологическая библиотека](#). Л.: Наука, 1972.
3. [Диодор Сицилийский. Историческая библиотека. Греческая мифология](#), Античное наследие. М.: Лабиринт, 2000.
4. [Beekes, R. S. P.](#) Etymological dictionary of Greek. Leiden • Boston: Brill, 2010.
5. [Тахо-Годи А. А.](#) „Атлант“, . [Мифы народов мира](#). М.: [Советская энциклопедия](#), 1990.,99bet.
6. Грейвс Роберт. [Мифы Древней Греции](#), Антропология, этнография, мифология, фольклор. М.: Прогресс, 1992.
7. [Friedman, Steven Morgan „A Brief History of the University, University of Pennsylvania Archives“](#). Archives.upenn.edu. 2010.
8. [Гесиод. Полное собрание текстов](#), Античное наследие. М.: Лабиринт, 2001.
9. [Вергилий „Энеида“](#), . [Буколики. Георгики. Энеида](#). М.: [Художественная литература](#), 1979.
10. Monier Monier Williams, [रिच Archived](#) 8 May 2021 at the [Wayback Machine](#), Sanskrit English Dictionary with Etymology
11. [Sattar, Arshia](#) (1996). *The Rāmāyaṇa by Vālmīki: An Epic of Ancient India*.
12. Гигин. Мифы, Античная библиотека. СПб.: Алтейя, 2000.

ARISTOTEL FALSAFASIDA TUG'MA QULLIK VA TUG'MA ERKINLIK HAQIDAGI QARASHLARNING QIYOSIY TAHLILI

Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi
“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
katta o'qituvchisi, PhD
Annotatsiya

Maqolada perepatetizm yo'nalishi asoschisi, yunon falsafasining yirik vakillaridan biri Aristotelning tug'ma qullik va tug'ma erkinlik tushunchalari haqidagi tasavvurlari o'rganilgan. Uning nuqtayi nazari o'z



⁸⁶ [Гераклит. Опровержение или исцеление от мифов, переданных вопреки природе](#) // Вестник древней истории / Перевод с древнегреческого, вступительная статья и комментарии В.Н. Ярхо.. — 1992.

zamonasining falsafiy, ijtimoiy va siyosiy muhitidan kelib chiqqan holatda yoritilib berilgan. Erkinlik va tobelik masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: erkinlik, tobelik, tug'ma qullik, tug'ma erkinlik, o'zboshimchalik, hukumdor, qul, axloqiy ezgulik, iroda, tanlov.

Аннотация

В статье исследуются представления Аристотеля, основателя направления перипатетизма, одного из крупнейших представителей греческой философии, о понятиях врожденного рабства и врожденной свободы. Его точка зрения представлено в состоянии, исходящем из философской, социальной и политической среды его времени. Основное внимание уделяется вопросам свободы и подчинения.

Ключевые слова: свобода, повинность, врожденное рабство, врожденная свобода, произвол, правитель, раб, моральная добродетель, воля, выбор.

Aristotelning erkin inson o'zboshimchalik sifatlariga ega bo'ladi hamda sodir etgan qilmishlariga bo'lgan mas'uliyatni bo'yniga olishi kabi qarashlari o'zining falsafasidan o'rin olgan. Lekin shu o'rinda bu tushunchani ochib beruvchi uning mohiyatini anglatuvchi nazariy ko'rinishga ega ta'rifni to'laqonli berib o'tmaganini anglash qiyin kechmaydi. U o'z nuqtai nazari bilan erkinlikni asoslagandek taassurot uyg'otadi, ammo aslida uning nazariy tanifini keltirmaydi. Na "Nikomax etikasi", na "Siyosat" asarining hech bir yerida erkinlikni aniq va izchil ko'rib chiqilmagan. Lekin bu uning erkinlik haqidagi fikrlari umuman bo'lmagan degan yondashuvni keltirib chiqarmaydi. Uni xuddi shu asarlarining ayrim qismlarida Aristotelning erkinlik borasidagi tasavvurlarini anglash mumkin. Bunga misol sifatida uning "Siyosat" asarining ayrim bir joylarida demokratiyaning ma'lum shakllari asosida yotuvchi tug'ma qul mavjudligi va erkinlikni tushunish kabi savollarni muhokama etganligini keltirib o'tish mumkin. Uning asarlaridagi bu mavzuni o'rganish foydadan holi emas. Chunki nafaqat Aristotelni tushunishimizga, balki u erkinlikka hozirgi zamondagi mavjud qarashlardan tubdan farqlanuvchi yondashuvi bilan tanishishimizga yordam beradi hamda shu orqali u bizning bu borada tadqiqot olib borishimiz uchun arzirli sabab bo'lib xizmat qiladi. Hozir uning "elevteriya"⁸⁷ va unga yaqin bo'lgan atamalarga e'tiborni qaratishga harakat qilib ko'riladi. Erkinlik deya tarjima qilinuvchi aynan shu tushunchani u siyosiy va axloqiy tomonlarini ochib berishda qo'llaydi. Erkinlik atamasiga qarama-qarshi atamaga sabab oqibatni anglatuvchi determinizmni emas, balki tiraniya va qullikni qo'yadi. Erkin shaxsning muhim tasnifi ochiq spontanlik emas, o'zboshimchalik, mustaqillik va ixtiyoriylikdir. Aristotel bu kabi qarashlari bilan hozirgi kundagi ko'pgina siyosatchilarning fikriga yaqinlashadi. Ammo shu bilan birga muhim farqni ham sezish mumkin: agar hozirgi ko'pgina zamonaviy nazariyotchilarning erkinlikka bo'lgan munosabatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, unda ular ushbu tushunchaga o'z shaxsiy faoliyatini inson harakat orqali ob'yekt yoki ob'yektlarga bog'liqliklarsiz yo'naltirish qobiliyati deya ko'rib chiqadilar; Aristotel esa shu o'rinda erkinlikni uning fikricha to'g'ri hamda tanlov uchun loyiq deb ko'rilgan maqsadga o'zini yo'naltirish qobiliyati kabi tushungan. Bunda anglanganidek, shaxs o'zining o'zboshimcha harakatlarini aynan shu tamoyilga asoslangan holda bajarishi darkor.

Hozir esa uni aynan "Siyosat" asarida tabiiy ko'rinishdagi qullik va demokratiya haqidagi muhokamasi asosida ko'rib chiqilgan erkinlikni ratsional o'z-o'zini boshqarish masalasiga e'tibor beramiz. Ushbu asarning birinchi kitobida individ (shaxs), oila va polis o'rtasidagi o'zaro aloqalarning tahlili o'rin olgan. Shunday aloqalarni ko'rib chiqqan holda Aristotel asarining ikkinchi va bechinni kitoblarining boblarida aynan oila munosabatlari tizimiga kiruvchi quldor va qul munosabatini ko'rib chiqqan. Shu o'rinda Aristotel inson o'zining tabiatidan qullikka

⁸⁷ Elevteriya - (yunon. Eleutherias (τὸλευθέρια) - erkinlik) 1. Dastlab qadimgi sparta simmaxiyasi bilan bog'liq bo'lgan forsarga qarshi kurashgan barcha yunon qabilalarining bayrami. U Zevs (Ὀλεuthérios) sharafiga tashkil etilgan va har yili Plateyada nishonlangan. Tez orada undan mahalliy bayram shakllangan. 2. Erot sharafiga bag'ishlangan Samos bayrami, bu dovyuraklarni sharaf va erkinlik uchun kurashda birga turishga undaydi. 3. Ozod qilingan qullar bayrami.

moyilligi bilan uning tabiatan erkinlikka mos bo'lgan holatini muhokama etishini kuzatgan holda, erkinlik fuqarolik statusi emas balki, har bir insonning qalb holati ekanligini nazarda tutganiga amin bo'lish mumkin. "Siyosat" ning ikkinchi kitobida "quldor va qul" munosabatining ilk bor tahlildan o'tkazilganini ko'rib erkinlik haqidagi ayrim savollarga javob olinadi: "Balki, nimaiki aql bilan ko'rolsak – bu tabiiy hukumron element, shu bilan birga tana bilan nimanidir amalga oshirish – bu tabiiy boshqariluvchi element va quldir" (1252a31-35)⁸⁸.

Tug'ma hukumdor tug'ma quldan ko'ra "aql yordami bilan oldindan ko'ra olish" kabi intellektual qobiliyatlarga ega. Lekin bu haqda Aristotelning aniq bir holatlarni yoki ko'rsatmalarni misol qilgani uchratilmaydi. Aynan bu qobiliyat qo'yilgan maqsadga erishish uchun qanday vositalardan foydalanish mumkinligi bilan boshqalaridan ajralib turaradi. Mutafakkir qulga "butunlay fikr yuritish, idrok etish qobiliyati yetishmaydi" (1260a12-13)⁸⁹, shunga asoslanib, ular aqliy qobiliyatdan mosuvo bo'lganlik hamda *fronezis*⁹⁰ uchun xos tafakkur qilishning shakliga mos keluvchi iqtidorga ega emaslikni xulosa qilib aytish mumkin. Shu o'rinda Aristotel aqli qullar borligini ta'kidlab o'tganini aytish mumkin, yana ham aniqlashtirilsa, tabiatan erkin bo'lgan shaxsda xolis ravishda qaysi maqsadlarga erishish uchun kerak bo'ladigan narsalarni oldindan aql bilan ko'ra bilish qobiliyati mavjudligini aytgan. Bunda faylasuf o'ylab ko'riladigan farosat bilan o'ylab ko'riladigan fronezisni o'rtasidagi farqni ajratib ko'rsatgan. Endi keltirilgan fikrlarni jamlab, erkin inson obrazini ko'rsatish mumkin. Demak, u aql-farosatini namoyon etish, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun vositalarni tanlash iqtidorini qo'llash, nafaqat bularni balki ulardan ham muhim bo'lgan fronezisga erishish, ya'ni aql va idrok yordamida qabul qilinadigan uchragan maqsadlarga yetishish uchun vositalarni topish qobiliyatini ko'rsatish imkoniyatiga ega. Fikrlash yoki elevteriya erkin insonning muhim vazifalaridan biriligini anglaganidan so'nggina Aristotelni xalq polisda maslahat bera olish, muhokama qilishni bilish majburiyatlariga ega bo'lmasa, u "qul qilinar va konsitutsiyaning dushmani" (1274a17)⁹¹ga aylanishi haqidagi tezisini tushuna boshlanadi.

Albatta, Aristotel tabiatan qullik haqida ham fikr yuritgan. Uning bu fikrlari asarining beshinchi bobning I kitobidan o'rin olgan: "Shuningdek, bir inson [boshqasidan], yoki qalb tanadan, yoki odam hayvondan farqlanadilar, - hamda ular agar ularning ishlari tanadan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan holatda bo'ladilar, va bu ulardan chiquvchi narsalarning eng yaxshisi bo'lsa, - unda tabiatan qul bo'ladilar... Yoki boshqasiga tegishli bo'lgan inson o'z tabiatidan qul bo'lgan kimsadir – aynan shu tufayli u boshqasiga tegishli hisoblanadi, - yana kimki aqlda unga egalik qiluvchi emas, balki faqat qabul qiluvchi sifatida ishtirok etsa ham" (1254b16-24).⁹²

Yana bir bor ta'kidlash lozimki Aristotel erkinlikni o'zida jo qilish borasida to'g'ridan to'g'ri aytib o'tmagan, bunda yuqoridagi yaqinlashtirib yozib o'tgan fikrlaridan, tug'ma qul – bu aqlga ega bo'lmay, faqat uni qabul qiluvchi sifatidagi odam, aksincha, tug'ma erkin shaxs esa – aqlni nafaqat qabul etuvchi, balki unga egalik qiluvchi inson, degan xulosa yasash mumkin xolos. Agar bu masalani amalda qo'llanishiga e'tibor berilsa, unda erkin shaxs o'z harakatlarini qaysi ne'matga qaratish va bu yo'lda nimalardan foydalanish kerakligini o'zi hal qiladi. Bu bilan bog'liq

⁸⁸ Аристотель. Сочинения в 4-х томах. – 4-й том. – М.: Мысль, 1983. – 830 с.

⁸⁹ O'sha yerda.

⁹⁰ Fronezis (qadimgi yunoncha: φρόνησις, lotinlashtirilgan: frónēsis) - amaliy harakatlar bilan bog'liq donolik yoki aqlning bir turi. Bu aql-idrokni ham, fe'l-atvor va odatlarning mukammalligini ham anglatadi va qadimgi yunon falsafasida keng tarqalgan muhokama mavzusi bo'lgan. Ushbu mavzu bo'yicha klassik asarlar bugungi kunda ham ta'sir ko'rsatmoqda. Aristotel axloqida bu tushuncha amaliy tabiati tufayli *epistema* va *sofiya* kabi donolik va intellektual fazilatlarini bildiruvchi boshqa so'zlardan farq qilar edi. An'anaviy lotin tarjimasi *prudentia* bo'lib, u inglizcha "prudence" ("idrok etish") so'zining manbai hisoblanadi. Bu Aristotel tomonidan 10 ta kitobdan iborat va "Nikomax etikasi" deb nomlangan asarda kiritilgan falsafiy atama ham hisoblanadi.

⁹¹ Аристотель. Сочинения в 4-х томах. – 4-й том. – М.: Мысль, 1983. – 830 с.

⁹² Walsh M.M. Aristotle's Conception of Freedom. – Journal of the History of Philosophy. – Volume 35, Issue 4. – October 1997. – 495-507 p.

masalalarni uning aqli bemalol yechishga, xulosalar qilishga, tahlillar o'tkazishga qodir. Qullarda esa buni ratsionalligini qabul qilish yani tushunish qobiliyati mavjud bo'lib, biroq masalani hal qiluvchi aqlga egalik nomavjudligini, bu narsani u ishlab chiqara olmasligini tan olishga to'g'ri keladi. Jumladan, qul doimo nima qilish borasidagi ko'rsatmalarga muhtojligi orqali xo'jayiniga tobe bo'lib turadi. Erkin inson esa o'zi xo'jayinga aylanish hamda nima yaxshi nima yomonligini o'zi ajratish imkoniyatiga ega bo'ladi. U maqsadni belgilashdagi ratsional qobiliyatni ishga slogan holatda unga erishish yo'llarini mustaqil tanlaydi. Aynan aqlga egaligi tufayligina xuddi "qalb tanadan, yoki inson hayvondan" ajralib turganidek mohiyatan u quldan farq qilib turadi. Demak aql bu uch narsani bir biridan ajratib farqlantiruvchi vositadir, ya'ni bunda qalb, inson va erkin shaxsda aql mavjudligi orqali tana, hayvon va quldan ajralib ko'rinadi. Qul biror bir harakatni amalga oshirish uchun u o'z tanasidan foydalanadi, erkin shaxs esa bundanda ko'prog'iga qodir. U intellekti, aqli orqali faoliyat olib boradi.

Kitobining 1253b26-54a18 qismida Aristotel qul "o'z tabiatiga binoan boshqasiga tegishli bo'ilishga qodir"⁹³ deya uning mohiyatini tushuntirmoqchi bo'ladi. Qul faqatgina o'z xo'jayini uchun as qotuvchi biror vazifalarda yoki masalalarni yechishda foydalaniluvchi jonli ko'rinishdagi asbob sifatida namoyon bo'ladi. Unda o'zining shaxsiy maqsadiga intilish va ularga erishish uchun aqlni ishlatish imkoniyatiga egalik qilmaydi. Barcha bu kabi vazifalar boshqaruvchi orqali amalga oshadi. Ya'ni maqsadni unga uning xo'jayini belgilab beradi. Bu jarayonni Aristotel aynan qul statusini biror bir vazifani bajaruvchi tana qismlari yoki a'zolariga o'xshatadi. Masalan, qo'l, uni o'zining ichki intellekti, maqsadi yo'q, shu tufayli u o'z-o'zini boshqarolmaydi. U harakatlarini, vazifalarini, buyruq va ko'rsatmalarni insondan va uning aqlidan oladi hamda uning sxemasi bo'yicha ish bajaradi. Tabiatan qul bo'lgan ham xo'jayinining hukumlariga va harakatlanishi uchun u maqsadni belgilab berishiga muhtoj. Qulning yagona "qismati" boshqaruvchisi belgilab bergan yo'ldan yurish, "boshqaga tegishli bo'lgan" esa o'zini boshqarish qobiliyatiga ega emas. Unda o'zi yoki boshqalar uchun qayg'urishga kerak bo'ladigan aql yo'q ekanmi bu holda u yo'l-yo'riq berilgan jonli asbob sifatida faoliyat olib borishga mahkum⁹⁴.

"Boshqaga tegishli bo'lgan" kimsa o'z-o'zini boshqarish qobiliyatiga egalik qilolmasligidan tashqari yana bir unga tegishli bo'lgan xususiyat bor. Qul o'zining ehtiyojlari va xohishlaridan tashqari bo'lgan maqsadga erishish uchun ishlaydi. Ya'ni "boshqaga tegishli bo'lgan" kimsaga o'zgalar tomonidan boshqarish foyda keltirsa-da, xo'jayin uning foydasi uchun uni boshqarmaydi. Buni Aristotelning quyidagi fikrlari bilan yoritish mumkin: qulga agar uni boshqarsalar yaxshi, lekin uning foydasi aynan shu maqsadda boshqarilayotgan xo'jayin va uning oilasini foydasiga qaraganda keyingi o'rinlarda turadi ("Siyosat", 1254b19-20, 1278b30-37; NE, 1160b29-31)⁹⁵. Bunda qisman bo'lsada qul boshqaruvchisining olgan foydasidan foyda ko'radi, xuddi qalbdan tana, insondan hayvon biron narsaga ega bo'lganidek. Qullik o'z manfaatini o'ylash orqali faoliyat olib borish bilan aniqlanmaydi, shu o'rinda, qulga xo'jayiniga bo'ysunishi foydali sanaladi. Demak, birinchi navbatda quldor manfaati, keyin esa qisman o'ziniki ustida ter to'kadi. Tug'ma qul o'z xo'jayini belgilab qo'ygan o'ziga tegishli bo'lmagan maqsad tomon harakatlanadi.

Yuqorida keltirilgan barcha fikrlar bizni yo hayratga solishi, yo g'azablantirishi, yo g'ayrinsoniylikdek ko'rinishi, yo norozigarchiliklar tug'dirishi mumkin. Bu yerda Aristotelga ko'plab tanqidiy va asosli e'tirozlar keltirish mumkin. Ammo shuni ilg'ash mumkinki, Aristotel qullikni tushuntirishi orqali uning erkinlik konsepsiyasini tushunishimizga yordam bergan. Agar tug'ma qul – o'z tabiatiga ko'ra boshqa birovlarining topshiriq va ko'rsatmalarisiz mustaqil ravishda maqsadga erisholmaydigan kimsa bo'lsa, unday holda tug'ma erkin shaxs – o'z tabiatiga ko'ra o'zini boshqara oluvchi va shu bilan birga boshqalarga yo'l-yo'riq ko'rsata oluvchi insondir. Demak bir necha bor keltirilgan jumladan aytish mumkinki, erkin shaxs o'ziga maqsadni aniqlashi uchun o'zgalarning ko'magiga muhtoj bo'lmaydi va erishish uchun o'z aqlini ishga

⁹³ Аристотель. Сочинения в 4-х томах. – 4-й том. – М.: Мысль, 1983. – 830 с.

⁹⁴ Walsh M.M. Aristotle's Conception of Freedom. – Journal of the History of Philosophy. – Volume 35, Issue 4. – October 1997. – 495-507 p.

⁹⁵ Аристотель. Сочинения в 4-х томах. – 4-й том. – М.: Мысль, 1983. – 830 с.

soladi. Shuningdek, erkin shaxs boshqalarning manfaati uchun emas faqat shaxsiy manfaati, yoki o'z hamkorlari va yo'ldoshlari foydasi yo'lida harakatlanadi. Chunki bu hamkorlik o'zaro foyda asosida paydo bo'lganligi uchun hamkorini manfaati uning foydasi uchun ham xizmat qiladi. Bu yerda inson "boshqalar uchun emas o'zi uchun mavjud bo'lsa u erkindir" ("Metafizika", 982b25-26)⁹⁶, degan jumlanı aytib o'tish darkor.

Tafakkur qilishga imkoni bor erkin inson o'zi erisha oladigan niyatlarni qo'yadi va ularni aqliy imkoniyati orqali amalga oshiradi. Uning maqsadsadi kichik va chegaralangan bo'lmasligi kerak. Bu holat uni erkinligiga to'siq bo'ladi. Shu boisdan Aristotel erkin shaxs uchun qanday ta'lim olish prinsiplarini belgilab beradi. U bo'yicha bunday shaxsga musiqa, rassomchilik va shunga o'xshash barcha san'at tulari ortidan yaratgan asarlarini olomonning past ehtiyojlari uchun pulga sotish va baholash kabi ko'nikmalarni berishlari kerak emas. Agar erkin shaxs yaxshilik uchun emas mukofot uchun harakatlanadigan bo'lsa, unda uning qarashlari noto'g'ri yo'ldan ketgan bo'lar edi. Yana shuni ta'kidlash joizki, unda mavjud erkinlikni yo'qotish xavfi paydo bo'lardi. Chunki to'lov yoki olomon ehtiyoji uchun ishlaydigan odam o'zi to'g'ri deb bilgan yo'ldan yurolmaydi, u aksincha unga buyurtma qilgan insonlarning maqsad, ehtiyojlari uchun harakat qilishga majbur bo'ladi (1341b9-18)⁹⁷.

Aristotel tomonida o'rganib chiqilgan tug'ma qul tushunchasining izohini tahlil qilganda erkinlikni eng sodda ko'rinishini tasavvur qilish mumkin. Tabiatidan erkin bo'lgan shaxsning xususiyatlari aqli va tafakkuri orqali o'z maqsadlarini belgilash va unga erishish yo'lida boshqalarning ko'rsatmalariga tobe bo'lmaslik, o'z harakatlarini faqat o'zi boshqarish, olomonning xohish-istaklarini qondish uchun emas, faqat sof ezgulik uchun intilish, bu yo'ldagi mustaqil tanlovlariga ham faqat o'zi javobgar bo'lishida ko'rinadi. Uni maqsadiga erishishi va erkinlikni saqlab turishi esa uning hayotiy darajasi va ta'lim-tarbiyasiga bog'liq.

Hukumdor va qul munosabatlarini tushuntirish orqali erkinlikni qanday ko'rinish kashf etishini ko'rib chiqildi. Bundan tashqari u erkinlikni turli tomonlardan ochib berganini kuzatish mumkin. Aristotel insonni faoliyat yuritish qobiliyatiga ega hamda o'zining tanlov erkinligi tufayli boshqa jonivorlardan ajralib turuvchi mavjudot sifatida ta'riflaydi. Tanlov esa spontan ko'rinishda tasodifan amalga oshirilmaydi. U uchun sof, asl bilim, intilish, iroda akti talab etiladi. Aristotel, albatta, ezgulik bilimi orqali inson faoliyati yaxshilikka yo'nalib turilishi kerak, deb hisoblagan. O'z navbatida, mukammal avtarkiya ko'rinishida tushunilishi talab etiladigan erkinlik tafakkur tamoyillari ishlab chiqqan polis tartibida ko'rinadi. Eng erkin inson safiga polis tartiblarini bilgan shaxs kiradi. Bu fikrlarga qo'shilsada, Aristotel o'z nuqtai nazarini ilgari suradi. Ya'ni, u yunon polisi dunyoqarashi chegarasidan chetga chiqishni uddalagan. U uchun donishmandlarning eng oliy avtarkiyasi baxtga erishish orqali tashkil topadi. Aniqroq aytganda, o'z irodasi istaklari orqali yashash imkoniyati ularning yuqori darajadagi erkinligini anglatadi⁹⁸.

Aristotel ham Sokrat va Platon singari tanlov erkinligi to'g'risida gapirar ekan, inson real, moddiy hayotda har doim ham tanlovni amalga oshirayotgan paytda aqlga qarab ish tutmaydi, degan fikrni yoqlagan. U o'z ehtirolari izmidan chiqmagan holda qarorlar qabul qiladi. Bunda ham inson erkinligi, ham uning mukammal bo'lmagan tabiati aks etadi. Platonning ijobiy va salbiy erkinlik borasidagi fikrlarini inobatga olib, Aristotel bu ko'rinishdagi erkinlikni ijobiy baholamaydi⁹⁹.

Faylasuf o'z ta'limotlarida inson hayotiga ta'sir ko'rsatadigan iroda aktiga e'tibor qaratdi. Shaxsning qilmishlarini kuzatgan holda ularni ixtiyoriy va ixtiyorsizga ajratadi. Bu haqda o'zining «Nikomax etikasi» asarida yoritib o'tgan. Aristotel insonlar mustaqil bo'lishlari ongli, o'ylab

⁹⁶ Аристотель. Сочинения в 4-х томах. – 1-й том. – М.: Мысль, 1976. – 550 с.

⁹⁷ Аристотель. Сочинения в 4-х томах. – 4-й том. – М.: Мысль, 1983. – 830 с.

⁹⁸ Пархоменко Р.Н. Генезис идеи свободы в западноевропейской философии // Философская мысль. – М., 2012. – № 4. – С. 179-210.

⁹⁹ Аристотель. Собрание сочинений: в 4-х т. – М.: Мысль, 1976-1983. – Т. 1. – С. 520.

chiqilgan tanlovni amalga oshirishlarini, mas'uliyatli xatti-harakatlanishlarini talab etadi, o'z baxtini topishiga imkon beradi, degan fikrda qat'iy turgan¹⁰⁰.

«O'zboshimchalik» tushunchasi erkinlik bilan aloqaga kirishishini Aristotel qarashlarida kuzatamiz. Inson o'z harakatlari qanday ehtimoliy oqibatlariga olib kelishi haqida tasavvurga ega bo'lmaslik, ya'ni bilimsizlik ko'rinishidagi va ixtiyorsiz amalga oshadigan faoliyat o'zboshimcha bo'lmagan faoliyat hisoblanadi. Aristotel individning o'zboshimcha faoliyati anglangan tarzda atay avvaldan rejalashtirilib o'ylangan qilmishlarni o'z ichiga olishi sifatida ta'riflaydi. Ammo o'zboshimcha faoliyatlarning ayrimlarida ixtiyorsiz holatlar uchraydi, ular anglanmagan holda amalga oshirilish vaziyatlari vujudga kelib turadi.

Shuningdek, Aristotel falsafasida iroda erkinligi haqidagi fikrlar muhim hisoblanadi. Unda «irodaviylik» tafakkur, aql-idrokni o'z-o'zini aniqlash sifatida tushuniladi. «Ko'ngillilik», ya'ni o'z istagi bilan bajarish Aristotel talqinida individ irodasi bilan bog'lanadi hamda u sababiyat manbasi bo'lib xizmat qiladi. Aristotel qarashlaridagi g'oyalardan biri o'zboshimchalikda o'z qilmishlariga o'zi javobgarlikni bo'yunga olishi to'g'risida gap boradi. Jumladan, A.A.Stolyarov ««Aybdorlik» tushunchasi har bir individda subyektiv-personal erkinlik bilan aloqador atamalar qatoriga Aristotel «iroda», «tanlov» yoki «qaror», «o'zboshimchalik», «maqsad» va boshqa bir qancha tushunchalarni qo'shib o'tadi»¹⁰¹, deb fikr bildiradi. Keltirib o'tilgan barcha kategoriyalarning stoya maktabi ta'limotlariga qabul qilinganligida¹⁰² vorisiylik tamoyilini uchratamiz. Bu maktab vakillari esa ularni rimlik mutafakkirlarga, keyinchalik esa patristika namoyondalari, yevropa mutafakkirlaridan tashqari sharq faylasuflari ham ushbu kategoriyalardan foydalanganliklarini falsafiy-tarixiy jarayonda kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аристотель. Собрание сочинений: в 4-х т. – М.: Мысль, 1976-1983. – Т. 1. – С. 520.
2. Аристотель. Сочинения в 4-х томах. – 4-й том. – М.: Мысль, 1983. – 830 с.
3. Пархоменко Р.Н. Генезис идеи свободы в западноевропейской философии // Философская мысль. – М., 2012. – № 4. – С. 179-210.
4. Реале Д., Антисери Д. Западная философия от истоков до наших дней: в 3-х т. – СПб.: Петрополис, 1994. – Т. 1. – С. 158.
5. Raximdjanoval D.S. Erkinlik tushunchasini transformatsion xususiyatini ikki davr o'rtasidagi differentsiatsiyasini sotsiologik so'rovnomaga orqali tahlili. - International scientific journal of Biruni. ISSN (E) 2181-2993. - Volume 2, Issue 02. - Tashkent, 2023. – Pg. 33-46.
6. Raximdjanoval D.S. Ibn Rushd falsafasida zaruriyat va erkinlikni zamondoshlari fikrlari inkori asosidagi o'ziga xos talqini. - Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. ISSN 2181-1784. - Volume 4, Issue 02. - Tashkent, 2024. – Pg. 562-570.
7. Raximdjanoval D.S. Practical importance of the transformational interpretation of the phenomenon of freedom in ancient times and in contemporaneity. - Philosophy and Life. ISSN: 2181-9505. - <https://doi.org/10.5281/zenodo.6852328>. - Tashkent, 2024. – Pg. 120-129.
8. Raximdjanoval D.S. The concept of the idea of freedom in ancient and medieval philosophy. - Psychology And Education Journal. ISSN: 00333077. - <https://doi.org/10.17762/pae.v58i1.1562>. - 1195 Stroud Court Westerville, OH 43081, 2021. – Pg. 4553-4563.
9. Raximdjanoval D.S. Comparative Analysis of the Interpretation of the Phenomenon of Transformational Freedom in Antiquity with Its Modern Approach. - International Journal of Social Science Research and Review. ISSN: 2700-2497. - <http://dx.doi.org/10.47814/ijssrr.v6i1.921>. - Germany, Duisburg, 2023. – Pg. 457-466.

¹⁰⁰ Реале Д., Антисери Д. Западная философия от истоков до наших дней: в 3-х т. – СПб.: Петрополис, 1994. – Т. 1. – С. 158.

¹⁰¹ Столяров А.А. Свобода воли как проблема европейского морального сознания. Очерки истории: от Гомера до Лютера. – М.: Греко-латинский кабинет Ю.А. Шичалина, 1999. – 208 с.

¹⁰² Столяров А.А. Свобода // Новая философская энциклопедия: в 4 т. / под ред. В. Степина, А. Гусейнова, Г. Семигина, А. Огурцова. – М., 2010. – 504 с.

**PROFESSIONAL TA'LIMNING RAQAMLI MALAKA
OSHIRISH MUHITIDA TINGLOVCHILARNI MUSTAQIL
O'QUV FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

Ro'ziyev Furqat Ro'ziyevich

**Professional ta'limni rivojlantirish instituti, Malaka oshirish
va qayta tayyorlash bo'yicha direktor o'rinbosari**

Annotatsiya



Ushbu maqola Professional ta'lim malaka oshirish tinglovchilarining mustaqil o'quv faoliyati yetakchi faoliyat hisoblanib, musaqil o'rganish, texnologik va ta'lim loyihalarini amalga oshirish orqali tinglovchilar zamonaviy professional ta'lim mutaxasssi uchun zarur bo'lgan malakalarni rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: Metod tushunchasi, ta'limdagi metodlar, Malaka oshirish kurslari bo'yicha mustaqil o'quv faoliyati, raqamli texnologiyalar bo'yicha loyihalash.

Аннотация

В данной статье самостоятельная образовательная деятельность обучающихся профессионального образования рассматривается как ведущая деятельность, и посредством реализации активных учебных, технологических и образовательных проектов обучающиеся формируют навыки, необходимые современному специалисту профессионального образования.

Ключевые слова: концепция метода, методы в образовании, самостоятельная образовательная деятельность на курсах повышения квалификации, проектирование по цифровым технологиям.

Annotation

This article considers the independent educational activity of professional education trainees as a leading activity, and through the implementation of active learning, technological and educational projects, trainees develop the skills necessary for a modern professional education specialist.

Key words: concept of method, methods in education, independent educational activity on advanced training courses, design on digital technologies.

Smart texnologiyasida maqsadni qanday qo'yish kerakligi to'liq yoritilgan. Bugun biz maqsadlarni aniqlashning eng samarali usullaridan biri - SMART usuli hisoblanadi.

SMART - bu so'zlarni birinchi harflarining qisqartmasi. SMART: Specific – aniq maqsad; Measurable – o'lchov; Achievable – qanday qilib; Realistic – dolzarbliligi; Timed – belgilangan vaqt. Bugun biz har bir komponentni batafsil ko'rib chiqamiz [1].

S-specific (aniq maqsad) – malaka oshirish sharoitida tinglovchilarni mustaqil o'quv faoliyatga tayyorgarligini kasbiy ta'lim bilan uyg'unlikda rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish.

M-measurulle (o'lchov) – tinglovchilarning mustaqil o'quv faoliyatga tayyorgarligini kasbiy ta'lim bilan uyg'unlikda rivojlanish darajalarini aniqlash.

A-achievable (qanday qilib?) – tinglovchilarning mustaqil o'quv faoliyatga tayyorgarligini kasbiy ta'lim bilan uyg'unlikda rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.

R-relevant (dolzarbliligi) – mustaqil o'quv faoliyatga tayyorgarligini rivojlangan professional ta'lim mutaxassisiga mutaxassislarga bo'lgan ijtimoiy talabning yuqoriligi.

T-time-bound (belgilangan vaqt) – tinglovchilarning mustaqil o'quv faoliyatini kasbiy ta'lim bilan uyg'unlikda rivojlantirish bosqichlari: aniqlovchi, rivojlantiruvchi, yakunlovchi.

Professional ta'lim malaka oshirishda seminar mashg'ulotlarini olib borish metodikasi.

Seminar mashg'ulotini olib borish tartibi: tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda kichik guruhlar shakllantiriladi, mavzu buyicha asosiy tushunchalarni javdal va sxemalari